



Aspects of development of historical thinking of foreign students through teaching History of Medicine

Nodirbek KOMILOV¹

Fergana Medical Institute of Public Health

ARTICLE INFO

Article history:

Received January 2024

Received in revised form

15 January 2024

Accepted 25 February 2024

Available online

15 March 2024

Keywords:

Medicine,
Medical Deontology,
cognitive activity,
pedagogical creativity,
didactic opportunity,
methodology,
medical practice,
organizational component.

ABSTRACT

This article highlights and analyzes the issues of developing the historical thinking of foreign students by teaching the History of Medicine.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss2/S-pp261-265>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Tibbiyot tarixi fanini o'qitish orqali xorijiy talabalar tarixiy tafakkurini rivojlantirish aspektlari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

tibbiyot,
tibbiy deontologiya,
kognitiv faoliyat,
pedagogik ijodkorlik,
didaktik imkoniyat,
metodika,
tibbiy amaliyot,
tashkiliy komponent.

Ushbu maqolada tibbiyot tarixi fanini o'qitish orqali xorijiy talabalarning tarixiy tafakkurini rivojlantirish masalalari yoritilgan va tahlil qilingan.

¹ PhD, Associate Professor, Department of Social Sciences, Fergana Medical Institute of Public Health.

Аспекты развития исторического мышления иностранных студентов через преподавание истории медицины

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

медицина,
медицинская деонтология,
познавательная
деятельность,
педагогическое
творчество,
дидактическая
возможность,
методика,
медицинская практика,
организационный
компонент.

В данной статье освещаются и анализируются вопросы развития исторического мышления иностранных студентов при обучении истории медицины.

Kirish. Xorijiy talabalarga tibbiyot tarixi fanini o'qitish orqali tarixiy tafakkurini rivojlantirishda ularning muayyan darajada tibbiy-tarixiy bilimlarni, tarixiy sanalarni samarali o'zlashtirish, tarixiy voqea, hodisa va jarayonlarning mazmunini tahlil qilish, sabab-oqibatlarini hamda o'zaro aloqadorligini baholay olish, tarixiy mohiyatga ega xaritalar bilan kutilganidek ishlay olish qobiliyatlariga ega bo'lishi muhimdir. Bo'lajak shifokor sifatida xorijiy talabalarning tarixiy tafakkurga ega bo'lishining yana bir muhim sharti – ular tomonidan tarixiy hujjatlar bilan ishlay olish kompetensiyalarining muvaffaqiyatli o'zlashtira olishiga erishish sanaladi.

Tibbiyot tarixi orqali shakllanadigan tarixiy tafakkur o'z navbatida talabalarning milliy g'urur va vatanparvarlik sifatlariga ega bo'lishlariga erishish uchun zamin yaratadi.

Xorijiy talabalarda tibbiyot tarixi orqali tarixiy tafakkurni rivojlantirish jarayonida quyidagi holatlar so'z yuritilayotgan jarayonda samaradorlikka erishishni kafolatlaydi [1]:

- zamonaviy sharoitda talabalarda tarixiy tafakkurni rivojlantirish ijtimoiy ahamiyatga ega masala ekaniga e'tiborni qaratish; talabalarda tarixiy tafakkurni rivojlantirish mazmunini yorituvchi kognitiv-metodologik asoslarni ishlab chiqish;
- talabalarda tibbiyot tarixi orqali tarixiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi mavjud didaktik, texnik va texnologik imkoniyatlardan samarali foydalanish chora-tadbirlarini belgilash;
- talabalarning tibbiyot tarixi orqali tarixiy tafakkurini rivojlantirishga yordam beruvchi innovatsion shakl, metod va vositalar tizimini asoslash;
- tibbiyot tarixi fanini o'qish jarayonida fanlararo aloqadorlikni ta'minlash;
- talabalar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy tarixiy bilim, ularni amaliyotda samarali qo'llash ko'nikmasi, malaka, tajribalardan amaliyotda maqsadli, oqilona foydalanishga imkon beruvchi shart-sharoitlarni yaratish.

Pedagogik manbalarda ilgari surilgan g'oyalarga tayangan holda bo'lajak shifokorlarning tibbiyot tarixi darsida tarixiy tafakkurga egalik darajasini o'qituvchi quyidagi metodlar yordamida baholashi mumkin [2]:

1) ta'lim-tarbiya jarayonida talabalarning o'quv-bilish faoliyatini bevosita o'rganish metodlari (pedagogik kuzatish, retrospektiv ish hujjatlari va o'quv hamda eksklyuziv faoliyat rejalarini o'rganish, suhbat, tahlil, boshqalar);

2) tarixiy tafakkurga egalik darajasini tashxislashga yordam beruvchi maxsus metodlar (tashxisli vaziyatlar, anketa, test va boshqalar).

Tadqiqotlarimiz davomida tibbiyot tarixini xorijiy talabalarga o'qitish jarayonida ularning tibbiyotga doir bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantiruvchi Explore, Pair, Share pedagogik modelining foydalanish sohalarini aytib o'tish lozim. Ular quyidagilar:

- seminar - bu yerda talabalar (tibbiyot tarixini amaliy o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar);

- o'quv jarayonidagi talaba va o'qituvchi rolli o'yinlari;

- talabalarning o'quv-tadqiqot ishlari va talabalarning ilmiy tadqiqot ishlari (mutaxassisliklariga doir adabiyotlarni ko'rib chiqish, ilmiy tadqiqot ishlarini o'rganish hamda kasallik varaqalarini tahlil qilish).

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tadqiq etilgan usullarning aksariyati muammoli xarakterga ega. Ular tibbiy (professional, klinik) ong va tafakkurni rivojlantirishga qaratilganligi bilan to'liq mos keladi. Shuning uchun, ulardan tibbiy ta'lim berish jarayonida foydalanish samaralidir. Tadqiqotlar davomida bugun tibbiyot tarixini o'rgatishda xorijiy talabalarni ko'proq o'z ustida ishlashga yo'naltirish hamda o'z-o'zini tarbiyalash ko'nikmasini shakllantirish zaruriyati mavjudligini ko'rsatib turibdi.

Tibbiyot oliy o'quv yurtlarida tibbiyot tarixi bo'yicha xorijiy talabalarga o'tmishdagi tabobat ilmi va bugungi shifokorlik san'atini taqqoslab o'rgatish ularning egallayotgan kasbiga nisbatan qiziqishini uyg'otadi. Tibbiyot tarixiga oid adabiyotlarni o'rganish hamda tibbiyot tarixiga nazar tashlash - tibbiyot sohasidagi eng yaxshi klinitsist - ma'ruzachilarning tajribalarini o'rganishni birinchi o'ringa olib chiqadi va bu katta samara beradi [3].

Bugun tibbiyot tarixi fanida Explore, Pair, Share pedagogik modeli orqali ma'ruza o'qish jarayonida pedagoglardan talab qilinadigan omillarni quyidagilar deb belgilash lozim:

- o'quv adabiyotlariga kirmagan fandagi yangi yangiliklarni berib borish;

- ko'rsatilgan o'quv materiallaridagi manbalarni korreksiya qilib borish;

- talabalarga tushunishi qiyin bo'lgan manbalarni, sohaga doir terminlarini hamda yangi tushunchalarni tushuntirib borish.

Explore, Pair, Share pedagogik modeli orqali o'tilgan ma'ruza har doim professional pozitsiyasini shakllantirishga, talabaga deontologik ta'lim berishga, kasbiy tayyorgarlikka, eksklyuziv kompetentlikni shakllantirishga qaratilgan eng samarali usul hisoblanadi va ushbu usul quyidagi afzalliklarga ega [4]:

- pedagogning auditoriya bilan to'g'ridan-to'g'ri munosabat o'rnatish, olishi,

- birgalikda ijodiy ishlarni olib borishi,

- pedagog bilan talabaning birgalikdagi faoliyati,

- talabalar auditoriyasini tibbiyotga doir yangiliklar bilan tanishtirish imkoniyatining mavjudligi,

- talabalar tomonidan tayyorlangan mustaqil ko'rgazmalarni muhokama qilish imkoniyatining mavjudligi,

Explore, Pair, Share pedagogik modelining mohiyati shundan iboratki, o'rganilayotgan materiallar bevosita talabalarga taqdim etilmaydi. Buning o'rniga

o'rganilayotgan mavzu, muammo, yoki topishmoq ko'rinishida talabalar mustaqil ravishda uning yechimiga kelishadi.

Natijalar. Ushbu metodda muammoni hal qilishning butun jarayoni uch bosqichga bo'lingan. Har bir bosqich o'qituvchi tomonidan belgilangan vaqt ichida amalga oshiriladi:

“EXPLORE” bosqichi - talaba muammo yuzasidan o'zi mustaqil fikr yuritadi. Ushbu bosqichda talaba berilgan savolga to'g'ri javob berganligi emas, balki g'oyalar, fikrlar, qo'yilgan muammo bo'yicha dastlabki farazlarni berish muhim hisoblanadi. Shuningdek, ushbu bosqichda talabalar muammoda o'zlari uchun tushunarsiz bo'lgan va qo'shimcha tushuntirishni talab qiladigan ma'lumotni ham qayd etadilar [5].

“PAIR” bosqichi - talaba o'z natijalarini sherigi yoki o'z guruhidagi boshqa talabalarining natijalari bilan taqqoslaydi. Bu bosqichda guruh ichidagi ma'lumotlar umumlashtiriladi va guruh umumiy fikrga, umumiy qarorga keladi. Bu bosqichda gap eng yaxshi yechimni qabul qiladigan guruh haqida emas, balki guruhning har bir a'zosi guruhning boshqa a'zolari qarorlarini ko'rib chiqish orqali muammo bo'yicha o'z tushunchasini boyitadi. Talabalar, bu bosqichda bironing qarori haqida fikr yuritishni o'rganadilar [6].

“SHARE” bosqichi – muammo guruhlar o'rtasida o'zaro muhokama qilinadi va barcha guruhlar muammoning umumlashtirilgan yechimiga keladi. Shu tariqa talabalar guruhlarda ishlashni o'rganadilar. Shu bilan birgalikda, ular tibbiyot tarixining zamonaviy muammolari to'g'risida yaxlit tushunchaga ega bo'ladilar.

Amaliy mashg'ulot strukturasi esa quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

Birinchi bosqich - bu tashkiliy bosqich bo'lib, unda dars mavzusi tushuntiriladi.

Ikkinchi bosqichda o'qituvchi talabalarining mavzu doirasidagi birlamchi bilim, ko'nikma va malakalarini o'rganib chiqadi. Amaliy mashg'ulotni olib borish jarayonida talaba metodik tavsiyanomadan foydalanadi, mavzu doirasida belgilangan topshiriqlar talaba tomonidan bajariladi. Belgilangan topshiriqlarga talaba og'zaki va yozma javob berishi mumkin, agar belgilangan vaqtdan oshmasa. Tematik topshiriqlar mavzuning mazmunidan kelib chiqqan holda belgilanadi, qiyinchilik darajasi esa guruhning salohiyatiga qarab belgilanadi.

Uchinchi bosqichda talabalar tibbiyot tarixiga tegishli bo'lgan situatsion vazifalarni bajarishadi. Misol uchun, “Tibbiyot tarixini davrlashtirish mavzusi”. An'anaga ko'ra, mavzuning ayrim qismi o'qituvchi tomonidan nazariy masalalarni tahlil qilishga bag'ishlangan (mikro – ma'ruza), bu xorijiy talabalarni tibbiyot tarixiga oid atamalar ustida ishlashga tayyorlash zarurati bilan asoslanadi. Bu bosqichda talabalarining ijodiy faolligi ortmaydi, faqat ularni turli xil sxemalar bilan ishlashga yo'naltiriladi. Seminar mashg'ulotining bunday turlari talabalarni metodik tavsiyalar orqali faol va mustaqil ishlashga undaydi.

Seminar jarayonida talabalarining barcha topshiriqlarni qadamma-qadam bajarishlari klinik amaliyotlarni o'tashlarida qiyinchilik tug'dirmaydi hamda talabalarni klinik fikrlashlarini rivojlantirib boradi.

Muhokama. Seminar mashg'ulotlarini bu tarzda olib borilishi talabalarni tibbiyotdagi kichik muammolarni mustaqil bajarishga undaydi, o'z bilimlarini yanada mustahkamlashga sabab bo'ladi va fanni o'qitishda ijobiy yutuqlarga sabab bo'ladi.

To'rtinchi bosqich - talabalarga seminarlarda mustaqil faoliyat olib borishlariga imkon beradi, talabalar bu bosqichda nostandart vaziyatlarda harakat qilish imkoniyatiga

ega bo'ladilar hamda tibbiyot tarixining barcha mavzularini o'rganib chiqib, o'qituvchiga har bir bosqichlarni tahlil qilib berish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunday eng muhim jihat - talaba o'zi xulosa qilishidir.

Seminarining beshinchi bosqichida assimilyatsiya natijalarini nazorat qilish, kursni muhokama qilish shaklida bo'lib, bu individual yoki guruh bilan tashkil qilinadi. O'quv mashg'ulotlarini bu tartibda shakllanishi klinik konferensiyaning bir varianti bo'lib, bo'lajak shifokorlarni professional nutqini hamda klinik tafakkurini rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Assimilyatsiya natijalarini nazorat qilish varianti murakkab muammolarni yechish bo'lishi mumkin. Buning uchun javoblar tanlangan va baholanadigan muammolarni yechimiga qaratiladi, shuning uchun ham vaqtni qisqartirish uchun ularni yozma shaklda bajarish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tibbiyot tarixi orqali xorijiy talabalarning tarixiy tafakkurini oshirish ularning bo'lajak shifokor sifatidagi kasbiy tayyorgarligiga katta ta'sir qiladi, talabaning fazilatlarini, qiziqishlari, munosabatini aniq belgilaydi, eng muhimi, tibbiyot pedagogikasida ijobiy natijalarga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. M.Kadirova Tibbiy ta'lim jarayonida kasbiy kompetentlikni metodik takomillashtirish texnologiyalari (tibbiyotda pedagogikani o'qitish misolida). Pedagogika fanlari doktori ... diss. – Namangan, 2023. – 202 b.

2. Armocida E, Nicoli Aldini N, Bussolati O. How do students approach the study of the History of Medicine? Some considerations after the final exams at the first year and fourth year. // Acta Biomed. 2021 May 12, 92(2): e2021167. doi: 10.23750/abm.v92i2.11306.PMID: 33988137. – P 123-159.

3. Caramiciu J, Arcella D, Desai MS. History of medicine in medical school curricula // Anesth.History, 2015. № 1(4). doi: 10.1016/j.janh.2015.02.010. – P. 38-48.

4. Joy RJT, Morris LE, Schroeder ME, Warner ME. The history of the development of the history of medicine and its teaching in the United States. - Illinois: Wood Library-Museum of Anesthesiology, 2004. – P.7-20.

5. Kushner HI, Leighton LS. Humanities in the Twenty-First Century. - London: Palgrave Macmillan, 2013. –P. 111.

6. Barsu C. History of Medicine between tradition and modernism // Clujul Medical. 2017, № 90(2).doi: 10.15386/cjmed-794. – P. 243.